



DINSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to‘plami*



XIV

TOSHKENT – 2022

UO‘K: 21/29(075)

KBK: 86.2ya7

A 50

Alimova, M., Ernazarov, O.

Dinshunoslikning dolzarb muammolari [Matn]: o‘quv qo‘llanma / M.Alimova, O.Ernazarov. – Toshkent: Adast poligraf, 2022. – 292 b.

Mas’ul muharrir:

Z.Islomov – *filologiya fanlari doktori, professor*

Tahrir hay’ati:

M.Alimova, N.Nizemetdinov, R.Urazova, R.Isakdjanov, O.Ernazarov, M.Abdullayeva, G.Xudoyberganova

Tuzuvchilar:

M.Alimova – *tarix fanlari nomzodi, dosent*

O.Ernazarov – *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Taqrizchilar:

M.Muhammadsiddiqov – *siyosiy fanlar doktori, professor*

Sh.Ziyodov – *tarix fanlari nomzodi*

Ushbu to‘plam O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida har yili an‘anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Dinshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarini o‘zida mujassam etgan. To‘plamda respublikamizdagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida dinshunoslik fanlari bo‘yicha dars beruvchi professor-o‘qituvchilar, dinshunoslik sohasi taniqli olimlari, islomshunos, sharqshunos, manbashunos, tarixchilar, shuningdek, yosh ilmiy tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan. Mazkur to‘plam materiallarida diniy bag‘rikenglik, milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi, ajdodlar ilmiy-ma’naviy merosining hayotimizda tutgan o‘rni o‘z ifodasini topgan. To‘plam dinshunoslik sohasida izlanish olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchi va pedagoglarning ilmiy-amaliy faoliyatlarini samarali tashkil etishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

To‘plamga kiritilgan materiallarda keltirilgan raqam, fakt va ma’lumotlar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy va o‘quv-uslubiy kengashining 2022 yil 14-iyundagi 14-son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2022-yil 28-iyuldagi 03-07/6082-son xulosasiga asosan tayyorlandi.

muloqot kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish ehtiyoji kuchaydi. Shu nuqtai nazardan Rim-katolik cherkovining davlat va jamiyat qurilishining G'arb madaniy qadriyatlari asosidagi yangi standartlarga muvofiqlashuvi uning zamonaviy dunyodagi istiqboliga bevosita daxldor bo'lib qoladi.

* * *

Nig'matullayev Ibrohim,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Qiyosiy dinshunoslik" mutaxassisligi 1-kurs magistranti

CHERKOV XIZMATLARINING KIBERMAKONDA GAVDALANISH TARIXI: PRESVITERIANLIK YO'NALISHI MISOLIDA

Bugungi kunda xristian jamoalari o'zlarining diniy faoliyatlarini osonlashtirish maqsadida "Internet cherkov", "onlayn cherkov", "kibercherkov" yoki "raqamli (elektron) cherkov" kabi turli xil usullardan foydalanadilar va bu, ayniqsa, ularga duo, bahs-munozara, va'z (ma'ruza) va ibodat xizmatlarida qo'l kelmoqda.

Internet diniy amaliyotlar uchun makon sifatida ekklesiologiya²⁴⁹ bilan bog'liq savollarni tug'dirdi, chunki ba'zi xristian an'analari onlayn yig'ilishni cherkovning o'rnini bosa olmasligini qat'iy ta'kidlaydi. Masalan, 2002-yilda e'lon qilingan ijtimoiy aloqalar bo'yicha Rim-katolik papalik kengashi "Kibermakonning virtual haqiqati haqiqiy shaxslararo hamjamiyatning, sirli marosimlar va liturgiya mujassam bo'lgan haqiqatni yoki xushxabarni darhol va to'g'ridan-to'g'ri e'lon qilishning o'rnini bosa olmaydi", deb e'lon qildi. Natijada mazkur masalaga chek qo'yildi.

"Onlayn cherkovlar" yoki "internet cherkovlar" deb nomlanuvchi internetga asoslangan xristian jamoalari 2000-yillarning boshlarida mashhurlikka erisha boshladi. O'shandan beri ular institutsional investitsiyalar, yanada murakkab ijtimoiy tarmoqlarning yuksalishi va erkin foydalanish mumkin bo'lgan virtual olamlarning paydo bo'lishiga javoban keskin rivojlandi. Onlayn muloqot ommalashgani va uy kompyuterlari

²⁴⁹Ekklesiologiya - xristian ilohiyotida cherkov, xristianlikning kelib chiqishi, uning Iso bilan aloqasi, najotdagi roli, siyosati, qonun-qoidasi, esxatologiyasi va yetakchiligini o'rganadi.

arzonlashgani sababli kompyuter bilan bog'liq aloqalar kengayib, dinning internetda gullab-yashnashiga sabab bo'ldi²⁵⁰.

Kibercherkov bu – cherkov sifatida mavjud bo'lgan umumiy veb-sayt, yoki ijtimoiy tarmoqdagi interaktiv maydon hisoblanadi. Kibercherkov so'zi dastlab veb-ishlab chiquvchi Tim Bednarning “Biz pastorlarimizdan ko'ra ko'proq narsani bilamiz” nomli maqolasida ishlatilgan, unda bloggerlik faoliyatining e'tiqodga ta'siri batafsil yoritilgan²⁵¹. Dinshunos va yozuvchi Jorj Barna o'zining “Inqilob” kitobida ushbu atamani “Internet orqali yetkaziladigan ruhiy tajribalar doirasi”ni tasvirlash uchun ishlatgan²⁵². Jorj Barna kibercherkovni kelajakdagi cherkovning bo'lajak “makro-ifodalari” (keng ko'lamli shakllari)dan biri sifatida ko'radi²⁵³.

Internet cherkovlar dastlab tashrif buyuruvchilarga xabarlar sifatida ma'lumot va ma'ruzaga o'xshash ma'lumotlarni joylashtira boshladilar. Yillar davomida mazkur ma'lumotlar videolar, audio podkastlar va bloglar shaklida rivojlandi. Bugungi internet cherkovlarining aksariyati g'ishtdan qurilgan cherkovlarning avlodlari bo'lib, a'zolariga jismonan cherkovda yig'ilishning muqobili sifatida onlayn (virtual) uchrashuvlarni taklif qiladilar. Internet cherkovlarining asosiy maqsadi dindorlarning audio yoki video muloqotlar, yig'ilishlar o'tkazishini, yozishmalarni amalga oshirishini ta'minlash hisoblanadi. Mazkur internet cherkovlar onlayn xristian hamjamiyatining turli jihatlarini o'z ichiga oladi, xususan, ba'zilar mazkur hodisani an'anaviy cherkovning kibermakondagi bir qismi deb, boshqalari esa rivojlanayotgan e'tiqodlarning bir ifodasi sifatida qaraydi.

Protestantlar xristianlikning Internetga dastlab kirib kelgan oqimlaridandir. Xususan, ulardan presviterianlar birinchilardan bo'lib 1985-yilda o'zining kibermakondagi faoliyatini boshlagan. AQSHlik olim va pastor M.Vindxem “Kibercherkov: kibermakonda xristian jamoasi” nomli tadqiqotida boshqa cherkovlarga nisbatan AQSH presviterian cherkovi kiberkommunikatsiya texnologiyalarining oldingi safida bo'lganligini,

²⁵⁰https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Internet_church&oldid=1062989467

²⁵¹Tim Bednar, “We Know More Than Our Pastors: Why Bloggers Are the Vanguard of the Participatory Church (<https://www.scribd.com/doc/47331/We-Know-More-Than-Our-Pastors>)” PDF (Accessed September 5, 2007)

²⁵²George Barna, “Revolution” (Tyndale House, 2005, ISBN 1-4143-1016-1)

²⁵³https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Internet_church&oldid=1062989467

yozuvchi va rohib Ch.Henderson ayni shu cherkov onlayn makonga kirib kelgan birinchi denominatsiya bo'lganini ta'kidlagan. Ularning dastlabki tarmog'i "Presbynet" bo'lib, unda cherkov rohiblari va o'z tarafdorlarini virtual olamda jamlagan²⁵⁴. Olim va rohib Ch.Hendersonning ta'kidlashicha, AQSH presviterian cherkovi onlayn makonga kirib kelgan birinchi denominatsiya bo'lgan²⁵⁵. Ushbu denominatsiya 1985-yil "Presbynet" tarmog'i orqali cherkov rohiblari va o'z tarafdorlarini virtual olamda jamlagan. U AQSH presviterian cherkovi xodimlari va a'zolari uchun mo'ljallangan onlayn tarmoq bo'lgan.

1992-yilda Amerika presviterianlari tomonidan birinchi virtual xristianlar jamoati tashkil etilgan va unga "Kibermakonning birinchi cherkovi" deb nom berilgan (www.godweb.org). Dastlabki tadqiqotlar diniy amaliyotlarning internetga transformatsiyasi, ya'ni bahs-munozara platformalaridagi "virtual jamoat"larni yaratish va veb-asoslangan ibodat uylari: kibercherkovlar, diniy rituallar, ibodatlarni amalga oshirish va hatto "virtual nikohlar" onlayn tarzda o'tkazishni yoritishga qaratilgan edi.

Mazkur tadqiqotlarning markazida turuvchi masalalardan yana biri, bu onlayn diniy jamoa tushunchasi haqidagi savollar edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, mazkur onlayn forum yoki platforma orqali amalga oshirilayotgan guruhlarining o'zaro muloqotini haqiqatan ham diniy jamoa deb hisoblash mumkin²⁵⁶.

Xulosa qilib aytganda, Internet cherkovlari an'anaviy cherkovlardan faqat onlayn ekanligi bilan farqlanadi. Onlayn cherkov xizmatidan muntazam foydalanuvchi dindorlar (churchgoer²⁵⁷) Bibliya o'qishda qatnashishi, xayr-ehson qilishi, jonli efirda xizmatlardan foydalanishi, konferensiyalarda qatnashish va hatto avvalgi bo'lib o'tgan xizmatlarning videolarini tamosha qilish imkoniyatlari mavjud. Cherkov a'zolari pastorlar va ruhoniylar bilan

²⁵⁴<https://cyberleninka.ru/article/n/oqimlarning-internetda-gavdalanishi-protestantizmning-presviterianlik-va-baptistlik-yo-nalishlari-misolida>

²⁵⁵Nesbit J. (2000). Virtual church as a site for cyber faith: A uses and gratifications analysis of two home church discussion lists. ProQuest Dissertations Publishing. The University of New Mexico. – P. 43.

²⁵⁶Heidi A.Campbell, Alessandra Vitullo. Assessing changes in the study of religious communities in digital religion studies. CHURCH, COMMUNICATION AND CULTURE, 2016 VOL. 1, NO. 1, 73–89 <http://dx.doi.org/10.1080/23753234.2016.1181301>

²⁵⁷churchgoer – cherkovga muntazam boruvchi odam.

aloqada bo'lib, boshqa dindorlar bilan birgalikda ishlashlari mumkin. Ba'zi hollarda cherkov a'zolari ruhoniylar bilan telefon orqali muloqot qiladilar.

* * *

Мамурахон Алишерхужаева,
Докторант ТГУВ

ДУХОВНОЕ И КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ПРЕДКОВ – УНИКАЛЬНОЕ СОКРОВИЩЕ

Обретение Республикой Узбекистан независимости и ее полноправия в международных отношениях, а также превращение в нового и молодого актора потребовали от нее наличия собственного пути и взглядов в различных областях. Об этом свидетельствуют социально-политические и экономические реформы. В ходе своей деятельности, начавшейся в 2017 году и признанной новым этапом нашего государства, главной задачей было совершенствование и модернизация этих реформ. Переход на новый этап должен осуществляться в сочетании с оценкой, изучением и достоинством богатой культуры нашего народа и уникального наследия наших предков.

Среди последовательных реформ, проводимых главой нашего государства, особое место принадлежит дальнейшему развитию и укреплению духовно-просветительской культуры общества. И это проявляется в решительных усилиях по возрождению национальных ценностей, сохранению нашего духовного и культурного наследия, а также нашего уникального научного наследия в мире, приданию ему ценности молодежи и мирового сообщества. В 2019 году вышел Указ Президента «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовного просвещения»²⁵⁸, согласно которому в «Концепции непрерывного духовного образования»²⁵⁹ речь идет о воспитании

²⁵⁸Постановление Президента Республики Узбекистан от 3 мая 2019 года № ПП-4307 «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы».

²⁵⁹Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2019 года № 1059 «О мерах по реализации и утверждения концепции непрерывного духовного воспитания».

Agzamova Nozimaxon. Pravoslavlikda Iso Masihning Quddusga kirib kelishi marosimining nishonlanishi.....	149
Ismatov Jahongir. Germaniya sharoitida ekstremistik qarashlarning yuzaga kelish tarixi	151
To‘xtanazarov Muhammadjon. Xristianlik dinining kibermakondagi faoliyati	156
Mamarailov Ibrohim. Mavlaviy Hindistoniy hayot yo‘li.....	159
Abdurayimov Alijon. Din sosiologiyasini o‘rganishda intervyu-suhbat usulining o‘rni.....	162
Karshiboyev Shaxzod. Zardushtiylikda inson va iymon munosabatlari.....	165
Saidumarov Saidislomxon. Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasi ruhoniylarining faoliyatiga oid tadqiqotlar (1946-1950 yillar).....	169
Muxtarov Bekzodbek. “Al-fiqh an-nofe” asarining Yevropada saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari.....	174
Turdiyeva Dilafruz. Dinshunoslik fani shakllanish tarixi	176
Xolmirzayeva Dilorom. Isroiliyot rivoyatlarining ibrohimiylarini qiyosiy tadqiq etishdagi ahamiyati.....	179
Satiboldiyeva Dilobar. Abdurazzoq Qoshoniy Samarqandiy va uning tasavvufiy tafsiri.....	182
Inamov Qodir. Qadriyatlar – yoshlar kamolotining asosi	185
Turayev Abrar. Neokonservativizm mafkurasi rivojida din omilining o‘rni	189
Kamilov Davron, Alikov Shohjahon. Rim-katolik cherkovining dunyoviy me‘yorlarga munosabati.....	194
Nig‘matullayev Ibrohim. Cherkov xizmatlarining kibermakonda gavdalanish tarixi: presviterianlik yo‘nalishi misolida	198
Alisherxujayeva Mamuraxon. Ajdodlarning ma‘naviy-madaniy merosi beqiyos boylikdir.....	201
Alidjanova Lazizaxon, Mardon Karimov. Islomda ruhiy va jismoniy sog‘lomlashtirishdagi mushtaraklik	205
Burgutxonov Saidumarxon. Ibn Hazm Andalusiyning “Al-fisol fil-milal val-ahva van-nihal” asari – dinlarni tadqiq etishda muhim manba	210